

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARIGA KO'RSATILAYOTGAN BANK XIZMATLARI TURLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403372>

Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich

NamMTI “Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi professori

G‘aniyeva Nozima Alijon qizi

NamMTI “Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Maqola kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va moliyaviy boshqaruvgaga oid bank xizmatlarini ta'riflaydi. Maqolada, kichik biznes sub'yektlari uchun taklif etilayotgan muhim bank xizmatlarining ro'yxati keltirilgan va ularga qisqa izohlar berilgan. Bunda, hisobvaroq ochish, kreditlar, kredit kartalari, omonatlar, hisob-kitob xizmatlari, elektron moliya xizmatlari, konsultatsiya va maslahatlar kabi asosiy xizmatlar ko'rsatilgan. Bu maqola, kichik biznes korxonalari uchun moliyaviy yo'nalishlarda banklar bilan ishlashni osonlashtirish uchun qulay bo'lishi mumkin.

Kalit So'zlar: kichik biznes sub'yektlari, konsultatsiyalar, elektron moliya xizmatlari, rivojlanish, ishbilarmonlik, tadbirkorlik.

Mavzuning dolzarbliги. Ma'lumki, har qanday mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining darajasi ayni shu mamlakatda tadbirkorlik qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat berib turadi. Sir emaski, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari ulushining ko'payib borishi bilan belgilanadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining kun sayin ko'payib borishi esa, o'z navbatida, mamlakatda yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 53,3 foizni tashkil etmoqda.

Mavzuga oid mavjud muammolar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini banklar tomonidan kreditlar asosida moliyaviy qo'llab quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini kreditlashni yanada kengaytirish"ni 3 vazifasi belgilab berilgan. Xususan, banklar tomonidan kichik biznes sub'yektlari faoliyatini kreditlash samaradorligini tavsiflovchi mezonlar banklarning kredit siyosatida o'z ifodasini topmaganligi, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rtacha biznesni kreditlash

borasida katta amaliy va boy tajriba to‘planganligini, ushbu ilg‘or xorij tajribalarini o‘rganish, umumlashtirish va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish respublikamiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishda ularning sifat va miqdor ko‘rsatkichlariga e’tibor beriladi. Sifat ko‘rsatkichlarga korxonaning boshqaruv tizimining soddaligi, bozordagi ulushiga ega bo‘lishi kabi ko‘rsatkichlar kirsa, ko‘p tarqalgan miqdor ko‘rsatkichlariga esa korxonada ishlovchilar soni, asosiy mablag‘lar qiymati, mahsulot sotish hajmi kabi ko‘rsatkichlar kiradi. Aynan shu ishchilar soniga qarab aniqlashda ham turli xilma-xillik mavjud. Masalan, Yaponiya va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida 300 kishigacha, AQSh va Italiyada 500 kishigacha, Tailand va Singapurda 50 kishigacha ishlovchisi bo‘lgan korxonalar kichik korxonalar hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlariga banklar tomonidan ko`rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar tadbirkorlarning samarali faoliyat olib borishi uchun asosiy ko`rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham so`nggi yillarda davlatimiz tomonidan bu sohaga katta e`tibor qaratilmoqda. Fikrimizning dalili sifatida mamalakatimiz prezidentining 2023 yil 14-sentabrdagi “Qishloq qurilish bank” tijorat banki negizida “Biznesni rivojlantirish banki” hamda uning huzurida “Kichik biznesni rivojlantirish jamg‘armasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati tashkil etish to`g`risidagi qarorini keltirishimiz mumkin .¹

Bu tur banklar kichik biznes sub’yektlariga moliyaviy yordam berish, kreditlar, hisobvaraq ochish, miqyosli moliyaviy maslahatlar kabi xizmatlarni taklif etishadi. Ular odatda kichik biznes sub’yektlariga qulay va inqilobiy mahsulotlar taklif etishga intilishadi, chunki ular o‘zlarini kichik biznes sub’yektlarining keraklariga mos ravishda moslashtirishadi.

Muammoni hal qilish usullari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlariga xizmat ko`rsatayotgan banklar o‘zaro farq qiladi. Bu banklar, kichik biznes

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori: “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari” to`g`risida. №PQ-306, 14.09.2023.

sub'yektlariga va shaxsiy tadbirkorlarga moliyaviy ko'mak ko'rsatishda yordam berish uchun xizmat ko'rsatadi. Bu banklar o'rtacha va kichik miqdordagi kreditlarni beradi, shuningdek, to'lovlar transaksiyalarini ushlab turish va shu kabi sohalarda ko'mak ko'rsatadi. Ularning asosiy maqsadi kichik tadbirkorlarga moliyaviy qo'llab-quvvat ko'rsatish orqali ularning rivojlanishiga yordam berishdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga xizmat ko'rsatayotgan banklar, ularning talablari va muddatlari bo'yicha spetsifik huquqiy maslahat va moliyaviy so'rovlarni muvofiqlashtirishga yordam berishi mumkin. Jumladan, yangi tashkil etilgan "Biznesni rivojlantirish banki"ga prezident qarori bilan tadbirkorlik sub`ektlariga quyidagi xizmat turlarini ko'rsatish vazifasi belgilab berildi:

- kichik biznesni rivojlantirish jamg`armasi va kichik biznesga ko`maklashish markazlarining faoliyatini tashkil qilish, muvofiqlashtirish va ularni xarajatlarini qoplash choralarini ko`radi;
- kichik tadbirkorlik sub`ektlarini o`rganishdan boshlab moliyalashtirish va ishlab chiqarishni barqaror yo`lga qo`ygunga qadar bo`lgan jarayonda moddiy va texnik qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi;
- ijobiy kredit tarixiga ega kichik tadbirkorlik sub`ektlariga soddalashtirilgan kreditlash tizimini joriy qiladi;
- "biznes ipotekasi" amaliyotini joriy qiladi va hududlarning master-rejasini ishlab chiqib, kommunikatsiya va infratuzilmaga ulangan ob`ektlarni ipotekaga beradi;
- tadbirkorlarga bozor kon`yukturasi va biznesni tashkil qilish masalalarida uzlusiz ishlovchi bank va konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi "Biznes 24/7"- "yagona darcha" tizimini yaratadi hamda faoliyatini ta`minlaydi.

Bu faqat bir nechta bank xizmatlari misollaridir va har bir bankning keng qamrovli bank xizmatlari majmui ham mavjud bo`lib, bundan tashqari banklar kichik biznes sub'yektlari va tadbirkorlar uchun kreditlar taqdim etishadi. Bu kreditlar umumiy sarmoyaga, ishlab chiqarishga, xarajatlarga yoki boshqa loyihalarga moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin.

Tadbirkorlik konsultatsiyalari: Ba'zi banklar tadbirkorlar va kichik biznes sub'yektlari uchun moliyaviy konsultatsiyalar va maslahatlar taklif etishadi. Bu,

sarmoya qo'llash, moliyaviy rejalar, xarajatni kaltagohlash va boshqa tadbirkorlik moliyaviy choralarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Elektron moliya xizmatlari: Banklar internet banking, mobil banking va elektron hisob-kitoblarni taqdim etish orqali, tadbirkorlarga va kichik biznes sub'yektlariga moliya operatsiyalarini bajarish imkoniyatini beradi. Bu shu jumladan, to'lovlar, omonatlar va boshqa moliyaviy operatsiyalarni onlayn bajarishni o'z ichiga oladi.

Valyuta almashish va savdogarlik to'lovlar: Banklar savdogarlar va tadbirkorlar uchun valyuta almashish va savdogarlik to'lovlar xizmatlarini taklif etadi. Bu, xalqaro savdo operatsiyalarini bajarish va valyuta bozorlarida faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lishi mumkin.

Xalqaro amaliyot o'r ganilganda kichik biznes va xususiy tadbirkorliknianiqlash mezonlari o'r ganilganda ular qisman mos kelmasligi ma'lum bo'ldi. Umuman olganda, dunyo mamlakatlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tajribasi o'r ganilganda, turli mamlakatlarda bu sohani takomillashtirish borasida turlicha mexanizmlar qo'llanilganligi va qo'llanilayotganligini ko'rish mumkin. Masalan, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti mamlakatlarida "bir darcha" tamoyilidan keng foydalaniladi. Fransiyada esa Biznes-rasmiyatchiliklar bo'yicha markazlar tarmog'i bo'lib, mazkur Markazlar ruxsatnomalar berish borasida vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan talablarga ko'ra tadbirkorlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga ma'lumotlar taqdim etib boradi. Hozirda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti davlatlarida ruxsat berish bilan bog'liq tartibtaomillarni yanada qisqartirish bo'yicha maxsus ko'rsatma qabul qilingan.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Banklar tomonidan mijozlarga, xususan, kichik biznes sub'yektlariga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini oshirishga va sifatini yaxshilash uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni berishim mumkin:

1) Sohada axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, "on-line" rejimi orqali hujjatlarni elektron tarzda taqdim etishni joriy qilish va hujjatlarni faqat sud qaroriga asosan chaqirib olish tizimini yo'lga qo'yish lozim. Xitoy, Bolgariya, Kolumbiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Moldova, Xorvatiya kabi mamlakatlar bu borada o'ziga xos yo'l tutganliklarini ham aytib o'tish lozim. Bu

mamlakatlarda juda qisqa vaqt mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochilganligi, xususan ruxsat berish tartib-tamoyillari soddalashtirilganligi va qisqartilganligi natijasida biznesni tashkil qilishga ketadigan xarajatlar hamda vaqt tejalishi hisobiga investitsiyalarning kirib kelishi osonlashgan. Ayniqsa, hujjatlarni “bir darcha” tamoyili orqali taqdim etish prinsipi asosida ishni tashkil qilish sezilarli ravishda ijobiy natija beradi.

2) Kichik biznes sub`yektlarini kreditlashda, ular orasida maxsus so`rovnomalari o`tkazilishi, uning natijasida aniqlangan kamchiliklar va muammolarni chuqur tahlili asosida kelgusida kreditlash jarayonini tashkil etish yaxshigina samara beradi.

3) Banklar tomonidan kichik biznes sub`yektlariga nafaqat an’anaviy xizmatlar, balki, xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilayotgan faktoring, forfeyting, overdraft, trast operatsiyalari kabi zamonaviy va noan’anaviy bank xizmatlarini joriy etilishi har tomonlama foydali deb hisoblaymiz. Bunday bank xizmatlarini yo‘lga qo‘yish uchun yosh va xorijiy tillarni mukammal egallagan xodimlarni nufuzli jahon banklariga malaka oshirishga yuborish darkor.

Xulosa sifatida ta`kidlash joizki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`yektlari uchun bank xizmatlari turli soha va yo‘nalishlarda taklif etiladi: hisobvaroq ochish, kreditlar ajratish, kredit kartalari, omonatlar, hisob-kitob xizmatlari, elektron bank xizmatlari, konsultatsiya va moliyaviy maslahatlar berish shular jumlasidan. Bunday xizmatlar kichik biznes sub`yektlari uchun moliyaviy boshqaruvda qulaylik yaratish va moliyaviy imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori: “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari” to‘g‘risida. PQ-306, 14.09.2023.
2. Dodhomirzaevich S. S., Nemadjonovich A. G. PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP CONCEPTUAL BASIS //JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 29-34.
3. Saidboyev S., Zulfikarova D. External sources of financing for entrepreneurship in agriculture //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2789. – №. 1.
4. Сайтбаев Ш. Д. Предпринимательство в аграрной сфере производства //СПб.: Изд-во С-Пб. ун-та экономики и финансов. – 1993.
5. қизи Фаниева Н. А. и др. Тўқимачилик ва ёнгил саноат корхоналарига банк хизмати кўрсатишнинг ўзига хос хусусиятлари //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 10. – C. 675-679.

6. Akbarov G., Sobirjonova N. The Monetary Policy in the Development of Public-Private Partnership //American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157). – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 106-114.
7. Мамаджанов Ш. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни суғуртавий химоялашда суғурта тарифларини аниқлашнинг ўзига хос хусусиятлари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 228-234.

